

**B1 DARAJADAGI O'RGANUVCHILAR UCHUN ESHITISH MAHORATINI
SHAKLLANTIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISH USULLARI.**

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganuvchilar uchun qo'yilgan xalqaro talablar hamda ko'nikmalar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada xalqaro talab hisoblangan 4 ko'nikmalar haqida so'z yuritilgan bo'lib, ularning bilim darajasiga qarab baholanishi aks ettirilgan. Maqolada bilim darajasi B1 (intermediate) bo'lgan o'rganuvchilar uchun eshitish ko'nikmasini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi foydali metodlar hamda ularning amaliyotga qay yo'sinda joriy etish lozimligi haqida fikrlar qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ingliz tili, mahorat, baholash tizimi, B1, eshitish mahorati, yozish metodi, qaytarish metodi, pauza metodi, parafraza metodi, kalit so'zlar metodi.*

Abstract: *This article describes the international requirements and skills for English language learners. In addition, the article mentions 4 skills that are in international requirement, and their assessment based on the level of knowledge is reflected. In the article, useful methods that form and develop listening skills for students with knowledge level B1 (intermediate) and opinions on how to implement them in practice are noted.*

Keywords: *English, skill, marking system, listening skill, writing method, repeating method, pause method, paraphrase method, keywords method.*

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha ingliz tilini o'rganish tobora ommalashib bormoqda. Boisi, ushbu til yer yuzidagi 400 million kishining ona tilisi sifatida qulay muloqot shakli bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, 1.5 milliarddan ortiq insonlar ushbu tilni ikkinchi yoki qo'shimcha xorijiy til sifatida o'rganib kelmoqda.

Ma'lumki, ingliz tilini o'rganuvchilar uchun bir necha talablar o'rnatilgan. Aniqroq qili aytilsa, ushbu tilda ravon so'zlashuvchi bo'lish istagidagilar o'zlarida asosiy hisoblangan 4 mahoratni shakllantirishlari lozim. Ushbu 4 mahorat butun dunyodagi o'rganuvchilar uchun bir xilda bo'lib, ular eshitish, so'zlashish, yozish hamda o'qish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlikdir. Ular bir-biridan farq qilib, har biri o'rganuvchidan ma'lum texnikalarni talab etadi.

Har bir o'quvchi til o'rganishni boshlagan zahotiy oq darajalarga ajratib boriladi. Ular A1 dan to C2 ga qadar baholanib, ushbu bosqichdagilar turlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Maqolada yoritib beriluvchi B1 darajadagi o'rganuvchilar uchun ham o'qituvchilar turli metodlarni qo'llaydilar, ayniqsa, gap eshitish mahorati haqida ketganda.

Eshitish mahorati, ya'ni "listening" mahorati o'rganuvchidan diqqatli bo'lishni hamda yot unsurlarga chalg'imaslikni talab etadi. Negaki, birgina diqqatning bo'linishi natijasida o'quvchi o'zi uchun berilgan topshiriqdagi savolni o'tkazib yuboradi,

natijada zaruriy ballni yig'a olmaydi. Buning oldini olish maqsadida, o'qituvchilar birinchi navbatda diqqatni bir nuqtaga jamlashni o'rgatadilar. Eshitishni o'rganishni endigina boshlaganlar uchun turli metodlar mavjuddir. Ulardan biri yozish metodi hisoblanib, bu metod o'rganuvchilar o'rtasida juda keng tarqalgan. Bu usulda o'quvchiga o'z darajasiga mos bo'lgan audio eshittiriladi. O'quvchi esa audioda eshitgan har bir so'zini yozma ravishda qayd etadi. Masalan:

- Hi, John! How are you?
- Pretty good, Rose.
- John, have you heard about "Golden gate bridge"?
- I don't think so. Where is it located?
- It is located in San Francisco.

Ushbu berilgan misolda o'rganuvchi har bir so'zni "H-i, J-o-h-n! H-o-w a-r-e y-o-u?" tarzida xatosiz yozib borishi lozim. Shu yo'l bilan ularda 2 ko'nikma, ya'ni so'zlarni imloviy xatosiz yozish hamda har qanday so'zni aytilgan paytda tushuna olish qobiliyatlari rivojlanadi.

Ikkinchi muhim metodlardan biri bu qaytarishdir. Nafaqat eshitish, balki gapirish ko'nikmasini ham rivojlantiruvchi ushbu usul o'rganuvchilarda yuqori samara bermoqda. Ushbu metodda o'quvchi audioning maxsus yozilgan transkriptidan foydalangan holda mashqni kuzatib boradi. Natijada, ular o'zlari uchun qiyin bo'lgan, yoxud o'rgangan paytgacha uchratmagan so'zlarining talaffuzi, imlosi hamda muqobil tarjimasini bilib olish imkoniga ega bo'ladilar. O'quvchilarda aktiv lug'at boyligini oshirishga katta hissa qo'shganligi sababli bu metod gapirish ko'nikmasini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi metod – bu pauza qilish. Bir eshitish mashqi davomida bir necha marta to'xtalish, ya'ni pauzalar qilish ushbu audioni tahlil qilishga yordam beradi. Ya'ni, bir uzun va bir necha qisqa gaplar o'rtasida pauza qilib, audiodagi har bitta so'zga ahamiyat qaratish o'quvchilarda ushbu so'zlarni imloviy xatolarsiz yozish va chiroyli talaffuz etish ko'nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari, ba'zi bir o'rganuvchilar mashq davomida anglay ololmagan so'zlarini o'qituvchidan so'rash yoki umumiy takrorlash davomida qaytara olish imkoniga ega bo'ladilar.

Eshitish ko'nikmasini rivojlantirishdagi keyingi muhim usullardan biri – bu parafraza qilishdir. Parafraza qilish – ma'lum so'z, so'z birikmasi yoki iboralarning turli o'rinlarda turlicha sinonimlarida qo'llanishidir. Ingliz tili dunyodagi boy tillardan biri hisoblanib, lug'atlarda bir so'zning bir necha ko'rinishlari uchraydi. Eshitishga doir topshiriqlarda esa ushbu sinonimlar juda keng qo'llanilib, ba'zan o'quvchilarda kichik chalkashlik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu boisdan ham o'rganuvchilar tilda ko'p qo'llaniluvchi so'z hamda iboralarning sinonim shakllarini yod olishlari foydadan holi bo'lmaydi. So'zlarning birdan ortiq ma'nodoshlarini bilish nafaqat eshitish mashqlaridagi xatolarning oldini oladi, balki qolgan 3 ko'nikmada yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Chunki o'quvchilar gapirish hamda yozish topshiriqlarini bajargan paytlarida o'z fikrlarini bayon etish uchun turli sinonimlardan foydalana

oladilar. O'qish mashqlarida esa xuddi eshitish topshiriqlaridagi kabi qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldi olinadi.

Keyingi metod – bu kalit so'zlar metodidir. Nomidan ko'rinib turibdiki, ushbu metodda o'quvchilarga eshitish mashqlarida berilgan maxsus so'zlar hamda iboralarni belgilab olish o'rgatiladi. Kalit so'zlar sifatida o'rganuvchi mashqda berilgan ismlar, joy nomlari, raqamlar hamda gap tugamagan holda bosh harf bilan yozilgan so'zlarni tanlashlari mumkin. Ushbu metod yordamida o'quvchilar asosiy narsaga fokus qaratishni o'rganadilar. Bu usul ba'zan diqqatning bo'linishi sababli audioni o'tkazib yuborgan o'quvchilarga ham yordam beradi. Ya'ni, o'quvchi audioning aynan ijro etilayotgan qismini ana shunday kalit so'zlar yordamida oson topa olishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'rganayotganlar uchun eshitish mahorati muhim hisoblanib, bu ko'nikma orqali ular shu tilda muloqot qiluvchilarni erkin tushuna oladilar hamda ular bilan suhbat qura oladilar. Bu ko'nikmani rivojlantirish esa nafaqat o'quvchiga balki, ularga saboq berayotgan o'qituvchilar tomonidan qo'llanuvchi metodlarga ham bog'liqdir. Yuqorida eshitish ko'nikmasini rivojlantiruvchi bir necha foydali usullar keltirilgan bo'lib, hozirgi kungacha o'rganuvchilarda kutilgan natijalarni berib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.cambridgeenglish.org/images/617355--teacher-s-guide-to-developing-listening-skills.pdf>
2. <https://preply.com/en/blog/improve-english-listening-skills/>
3. <https://www.careersingovernment.com/tools/gov-talk/career-advice/on-the-job/9-strategies-increasing-listening-power/>
4. <https://blog.cengage.com/7-key-active-listening-skills/>